




№3
2024



ЎЗБЕКСТАН МАМЛЕКАТЛИК КОНСЕРВАТОРИЯСИ
НОКИС ФИЛИАЛИ

MUSIQ VA SAN'AT AJOBO KOTNOHASI | БЕЎТХИҚ ХУЗЪҚИ Ҳ ИҚОЎҚТБА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRILIGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRILIGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

O‘QUVCHILARGA XALQ CHOLG‘ULARINI O‘RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI

Jumaniyazov O‘.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda o‘quvchi yoshlarga xalq cholg‘ularini o‘rgatishda sharq allomalarining musiqiy risolalarida keltirilgan bilimlarning o‘rni va ahamiyati, xalq cholg‘ularini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda badiiy-estetik did va madaniy dunyoqarashni rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: San’at, madaniy dunyoqarash, badiiy-estetik did, ahloqiy-estetik, ma’naviy-ahloqiy, musiqa, tremolo, an’ana, urf-odat, tarbiya.

Аннотация: В этой статье рассматриваются роль и значение знаний, содержащихся в музыкальных трактатах восточных ученых, в обучении обучающейся молодежи народным инструментам, развитие художественно-эстетического вкуса и культурного мировоззрения учащихся посредством обучения народным инструментам.

Ключевые слова: Искусство, культурное мировоззрение, художественно-эстетический вкус, нравственно-эстетический, духовно-нравственный, музыка, тремоло, традиция, обычай, воспитание.

Abstract: This article examines the role and significance of the knowledge contained in the musical treatises of Oriental scholars in teaching young people folk instruments, the development of artistic and aesthetic taste and cultural outlook of students through teaching folk instruments.

Keywords: Art, cultural outlook, artistic and aesthetic taste, moral and aesthetic, spiritual and moral, music, tremolo, tradition, custom, education.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek; “Yoshlarni san’at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o‘zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy dunyoqarashini yanada

yuksaltirish” [2] bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, o‘zbek musiqa san’atining hozirgi kunda jahon sahnalaridan o‘zining be’takror durdona asarlari bilan o‘rin olishi negizida dunyo hamjamiyatining o‘zbek musiqa san’atiga yuksak qiziqish va xayrihoxligini ko‘rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan biz, bugungi kun yosh avlodlarini o‘zbek musiqa san’atining nodir asarlari bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda milliy musiqa an’analariga yuksak ehtirom, o‘zlikni anglash tushunchalarining tarkib topishi va madaniy dunyoqarashning shakllanishiga a’lohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Sharqda musiqiy bilimlarning tarkib topishi, buyuk bobolarimiz: Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Umar Hayyom, Abdulqodir Marog‘iy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud, Darvesh Ali Changiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz davridan ma’lumdir. Ular o‘z risolalarida ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san’atkorlik qonun-qoidalariga oid musiqiy ilmlarni yozib qoldirgan.

Forobiyning (873-950) «Katta musiqa kitobi» (“Kitob al-musiqa al-kabir”), Ibn Sinoning (980-1037) “Davolash kitobi” (“Kitob ul-shifo”) qomusidagi “Musiqa haqida risola, Al-Xorazmiyning (X asr) “Bilimlar kaliti”, Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) “Olijanoblik haqida kitob” yoki “Sharafiya kitobi”, Jomiyning (1414-1492) “Musiqa haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg‘u sozlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Safiuddin Urmaviy iste’dodli ud cholg‘uchisi, xonanda hamda mashhur sozanda sifatida nom qozongan. Safiuddin Urmaviyning eng katta yutuqlaridan biri lad («modus»)larining mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidir.

Ustoz Yusufjon Shakarjonov o‘zbek milliy musiqa san’atini bamisoli bir daraxtga qiyoslab, uning “tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg‘onadir” deb ta’riflaganlar. Ustozning ushbu so‘zlarida katta ma’no bor.

Forobiy qomusiy olim bo‘lishi bilan bir qatorda buyuk musiqashunos olim hisoblangan. Forobiy musiqa risolalarida insonning nozik sezgilari, tug‘ma iste’dod va salohiyatlarining mevasi ekanligini ta’kidlash bilan barobar, uning inson

ma'naviyati va ma'rifatini, ongi va tushunchalarini to'ldiruvchi ruhiy ne'mat ekanligini ta'kidlaydi.

Forobiy kuy turlari va ularning inson ruhiyatiga ta'siri haqida ta'kidlab, ularni uch turga ajratadi: ko'ngilga lazzat va rohat bag'ishlovchi; boshqasi birinchi tur kuylar bilan qo'shilib, ko'ngilni taxayyul bilan boyituvchi; uchinchi xil kuylar esa hayvonlarning lazzati va aziyati bilan bog'liq mazmundan tarkib topadi. Forobiy fikricha, barcha tabiiy va sun'iy tovushlar, hissiyot hamda kechinmalar mohiyati, mazmuni insonning idrok quvvatiga bog'liq bo'ladi. Forobiy sozanda, bastakor, musiqa asboblari ustasi sifatida musiqa tarixida ham o'z o'rniga ega.

Forobiy fanlar tasnifida musiqani matematika ilmi tarkibiga kiritadi.

Forobiy "Ixso al-ulum" asarida musiqa ilmini quyidagicha ta'riflab: "Musiqa ilmiga kelganda qisqacha shuni aytish mumkinki, u ohanglarning turlarini, ularning tuzilishi nimalardan iborat ekanligi va qaysi yo'llar bilan tashkil topishi hamda qanday hollarda o'tkir va ta'sirchan bo'lishini o'rganadi" [1. 295], - deydi va musiqa ilmini amaliy hamda nazariy qismlarga ajratadi.

"Kitob-al musiqa al-kabir" risolasida musiqiy bilimlarning usul-qoidalari va unga bog'liq bo'lgan turli narsalarni o'rganish; ikkinchi kitobda zamonaviy musiqa asboblari va ulardan foydalanish yo'llari, uchinchisida esa, tovushlarning turlari haqidagi fikri bayon etiladi.

Qomusiy olim Forobiy musiqa san'atini insonning ahloqiy-estetik takomili bilan birga, ilmiy bilimlar tizimida ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Musiqiy bilimlar dunyosida Farobiyning "Musiqa haqida katta kitob"i jahon musiqa fanining shoh asarlaridandir. Farobiy o'z zamonining cholg'u asboblari mukammal o'rgangan. U ud, tanbur, rubob, qonun, nay, miztor, surnay va boshqa cholg'ular to'g'risida bebaho bilimlarni yozib qoldirib, turli asboblarning bir nechta sozlanish qoidalari haqida ham asosli fikrlarni bayon etadi.

Xalq cholg'u sozlari uzoq o'tmishlarda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan oldingi XIII ming yillikda vujudga kelgan, deb taxmin qilinadi. Eng dastlab urma zarbli cholg'ular keyin shovqinli cholg'ular paydo

bo'lgan. Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk daraxti poyasidan surnay, xushtak, nay (bo'ylama, ko'ndalang, ko'p yo'lli), naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) va kifalar yasalgan. Vaqt o'tib ushbu cholg'ular yanada takomillashib naylar yuzaga kelgan. Keyinroq esa torli-mizrobli va torli-kamonli musiqa cholg'u sozlari paydo bo'ldi.

Bugungi globallashuv davrida musiqa, estetik tarbiya madaniy hayotimizda tobora keng o'rin olmoqda. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda musiqa san'atini yanada rivojlantirish, o'quvchi yoshlarni keng jalb qilish, orqali ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish va ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashga a'lohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek musiqasida milliy cholg'u asboblari milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz kabi har birimiz uchun qadrlidir. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quvchi yoshlarni musiqiy bilimlar bilan qurollantirib borishimiz zarurdir. O'quvchilarni cholg'u ijrochiligiga o'rgatish, ularning qiziqish va qobiliyatlariga ko'ra yakka tarzda yoki jamlangan cholg'u turlari mashg'ulotlari yoki to'garaklar faoliyatlarida, muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsad va vazifalardan kelib chiqib tashkil etiladi. Bu o'rinda asosiy diqqat o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, o'quv topshiriqlarining mazmun mohiyatini anglash tushunish va his etishga o'rgatish, cholg'u asbobida chalish mahorati va texnikasini egallash barobarida o'zbek hamda qardosh xalqlar madaniyati va san'atidan alohida o'rin olgan nodir asarlar bilan tanishtirib borishga qaratiladi.

Cholg'u asboblari o'rganish mashg'ulotlari o'ziga xos tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham mazkur jarayonlarda ta'lim-tarbiyaviy maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish lozim.

O'quv jarayonlarida o'qituvchi o'quvchilarga taqdim etilgan musiqa asarlarini cholg'u asbobida chalishni o'rgatish bilan bir qatorda uning mazmuni-mohiyatini, shuningdek kompozitorning ichki kechinmalarini his qila bilishni, uni idrok etishni, tushunishni, asarning musiqiy "tili"ni tushuna olishini, chalishni o'rganishning usul va yo'llarini o'zlashtirishini nazorat qilib borishi kerak. Bularning barchasi musiqa san'atiga qiziqish va muhabbatni cholg'u asbobida ijro etish ehtiyojini tarbiyalashga qaratilgan

boʻladi. Maqsadga erishish uchun oʻqituvchining oʻzi musiqani, ayniqsa tanlangan cholgʻu sozida ijro etishni astoidil sevishi, oʻzidagi bor bilim va tushunchalarni oʻquvchiga yetkazib berishi lozim.

Musiqqa darslari oʻquv jarayonlarida oʻquvchilarga ijrochilikni oʻrgatish asosiy vazifa hisoblansa-da, ularda ijrochilik malakalarini shakllantirishda yordamchi vositalarning oʻrni va ahamiyati katta ekanligini unutmaslik va bu borada yetarlicha pedagogik shart-sharoitlarni yaratish oʻqituvchining eng muhim vazifasi ekanligini unutmaslik kerak.

Xalq cholgʻu sozini oʻrganish uchun zarur bilim va malakalarni shakllantirishda cholgʻuchilikning oʻziga xos texnik shartlari borki, ularni oʻzbek milliy cholgʻularining har birini chalishda qoʻllaniladi.

1. Tremola. - asosan chertib cholinadigan cholgʻu asboblarda asosiy usullardan hisoblanadi. Bunda noxunni pastga-yuqoriga tez va bir tekis chertish orqali hosil qilinadi. Tremola tegishli nota metalliga koʻndalang chiziqchalar tortish bilan koʻrsatiladi.



Tremolalar odatda sakkiztalik notalardan boshlanadi va oʻn oltitalik darajaga yetkaziladi.

Rezlar esa undan maydaroq boʻlib, u tez suratdagi oʻn oltitaliklar yoki oʻttiz ikkitaliklardan, baʼzan oltmish toʻrttalik darajaga yetkazilishi mumkin.

Tremola va rezlardan mohirona foydalanish yoki ularni yaxshi oʻzlashtirish ijrochining kasbiy mahorati darajasini belgilovchi muhim belgilar hisoblanadi. Shuning uchun tremola va rezlar ustida ishlash butun taʼlim davrida izchil yoʻlga qoʻyilishi zarur.

Oʻquvchilarni cholgʻu sozlarini ijro etishga oʻrgatish ularda estetik tarbiyaning samaradorligini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Ushbu jarayonda oʻqituvchi va oʻquvchilarning musiqa asarlarining badiiy xususiyatlari, ularni ijro etish uslubi, asarning xarakteri, badiiy obraz va voqelikni anglash, uni idrok etish, tushunish va ijroda qoʻllash yuzasidan suhbat va fikr almashishlari natijasida oʻquvchi shaxsini har tomonlama kamol

toptirishga yordam beradi. Bu esa musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarni buyuk allomalarning musiqiy risolalari, uzoq o'tmishga ega xalqimizning turli mazmun va janrdagi folklor, mumtoz kuylar va maqom asarlari bilan yaqindan tanishishtirish orqali ularda badiiy-estetik did va musiqiy tafakkur rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Форобий risolасидан намуналар. М.Хайруллаев. «Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири китобига илова». -Т.: Ўзбекистон. 1971 йил. 295-бет.

2. <https://kun.uz/uz/79428803>

3. Жомий А. «Музыка хакида рисола». Т., 1960.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍNDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABINÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODEL.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQIWSHILARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPAQ AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181